MAHMUD AZ-ZAMAXSHRIYNING ISLOM AXLOQIGA OID QARASHLARINI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI



M.Yu.Aytbayev.
ISFT instituti dotsenti, f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning islom axloqi haqidagi qarashlari va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamaxshariy Qur'on va islom tamoyillariga tayanib, adolat, rostgo'ylik, tinchlik va insonparvarlikni asosiy axloqiy fazilatlar sifatida ko'rsatadi. U yolg'on, tuhmat va g'iybat kabi illatlarni qoralagan, tinchlikni har qanday nizodan ustun qo'ygan. Ushbu axloqiy qarashlar hozirgi zamonda ham jamiyatni odob-axloq sari yetaklashda muhim rol o'ynaydi. Zamaxshariyning axloq, iymon va mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni yoritib, umuminsoniy tamoyillarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Mahmud az-Zamaxshariy, islom axloqi, adolat, rostgo'ylik, tinchlik, insonparvarlik, Qur'on, mas'uliyat, iymon, axloqiy tamoyillar, umuminsoniy qadriyatlar.

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды Махмуда аз-Замахшари на исламскую этику и ее значение сегодня. Опираясь на Коран и исламские принципы, Замахшари показывает справедливость, честность, мир и человечность как главные моральные добродетели. Он осуждал такие пороки, как ложь, клевета и сплетни, и ставил мир выше любого конфликта. Эти моральные взгляды даже сегодня играют важную роль в приведении общества к нравственности. Замахшари освещает связь между моралью, верой и ответственностью и выдвигает универсальные принципы.

Ключевые слова: Махмуд аз-Замахшари, исламская этика, справедливость, честность, мир, гуманность, Коран, ответственность, вера, моральные принципы, общечеловеческие ценности.

Annotation

This article analyzes Mahmoud al-Zamakhshari's views on Islamic ethics and its importance today. Relying on the Qur'an and Islamic principles, Zamakhshari shows justice, honesty, peace and humanity as the main moral virtues. He condemned vices such as lies, slander and gossip, and put peace above any conflict. These moral views play an important role in leading the society towards morality even today. Zamakhshari illuminates the connection between morality, faith and responsibility and puts forward universal principles.

Key words: Mahmoud al-Zamakhshari, Islamic ethics, justice, honesty, peace, humanity, Quran, responsibility, faith, moral principles, universal values.

Islom olami fan va adabiyotida yuksak axloqiy g‘oyalar mavjud. Ularda islom axloqi, madaniyati va adabiyotining mustahkam poydevori shakllangan. Yuksak insonparvarlik, pokiza axloq islom mutafakkir va allomalari uchun ilhom manbaidir. Islom odamlarni hamkorlikka, muhabbatga, birodarlikka chaqiradi. Bu buyuk Qur’on taklif qilgan buyuk axloqiy da’vatdir. Islom har bir musulmondan adolatga muvofiq harakat qilishini talab qiladi.

Mahmud Az-Zamaxshariy ham musulmonlarning axloqiy jihatlariga o‘z asarlarida alohida to‘xtalib o‘tgan. U yolg‘onni inson tabiatining eng yomon ko‘rinishi deb bilgan va yolg‘onchini do‘zaxga mahkumligini, g‘iybat, tuhmat, xudbinlik ham xuddi shunday yomon sifatlar bo‘lib, muqaddas Islom dini tomonidan qoralanishini qayd etgan. Islomda sharob harom deb e’lon qilingan bo‘lib, musulmonlarni uni iste’mol qilishdan qaytargan. Ichish gunohdir, agar mo‘min bo‘lsa, buni qilmaslik kerak. Zino ham toshbo‘ron qilishga loyiq eng og‘ir gunohlardan hisoblanadi. Muqaddas Islom dini qon to‘kishdan qaytaradi, nohaq qon to‘kganlarni do‘zaxga mahkum etadi. Qasos olishga urg‘u berib, uni zarar darajasigacha joiz, diyot (qon puli) olishni ham zarur deb biladi. Islom tomonidan o‘rnatilgan ko‘rsatmalar qon to‘kilishini oldini olish bilan bog‘liq, Zamaxshariy ham hamisha urush va nizolardan ko‘ra tinchlikni afzal ko‘rib, odamlarning tinchlik va yarashuv yo‘li bilan bir-biriga yaqinroq bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan va tinchlik hamma narsadan afzal ekanligi qayd etgan.

Islom dini pok din, axloq yo‘li, adolat va insonparvarlik maktabidir. Bu muqaddas din hamisha o‘z tarafdorlarini haqiqatga, sadoqatli bo‘lish va boshqalarga yaxshi munosabatda bo‘lishga undagan, yolg‘on yo‘lidan saqlangan. Musulmon kishi hayotning barcha jabhalarida: xoh iymon va amalda, xoh maishiy ishlarda, xoh oila va xo‘jalik ishlarida bo‘lsin, Alloh va Rasuli tomonidan belgilangan dasturga amal qilishi kerak. Muqaddas islom dinining axloqiy me’yor va qoidalari odamlar o‘rtasidagi eng yaxshi munosabatlarni o‘z ichiga oladi va jamiyatni odob-axloq sari yetaklaydi.

Zamaxshariyning fikricha, islomda axloq alohida ahamiyatga ega bo‘lib, e’tiqod va ibodatga asoslanadi. Din to‘liqligicha, butunligicha axloqiydir. Oisha (r.a.)dan “Qur’on maqtalgan payg‘ambarning axloqi qanday edi?” deb so‘rashganda “Payg‘ambarning axloqi Qur’on edi”, deb javob bergan. Go‘zal axloqli kishi Payg‘ambar (s.a.v.)ning mahbubi va jannatdagi hamrohidir. Islom dinida go‘zal axloqning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati borki, axloqning ezgu ishlari, natijalari shunchalik ko‘pki, ularning barchasini bir joyga jamlash uzoq vaqt talab etadi. Umuman olganda, go‘zal axloq dunyo va oxirat saodatining manbai, desak xato bo‘lmaydi.

Barcha samoviy dinlar insoniyatga go‘zal axloqni o‘rgatadi, lekin islom oxirgi ilohiy xabar va barcha fazilatlar yig‘indisidir. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) mavjud kamchiliklarni bartaraf etish,

insoniyatni axloqiy kamolotga yo‘naltirish, o‘tmishdagi dinlarning parchalanishini yig‘ish uchun kelgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam boshiga odob tojini qo‘yishini, badanini go‘zal axloq bilan bezashini doimo Alloh taolodan so‘rab duo qilganlar: “Yo Rabbiy! Menga go‘zal yuz berganingdek, tabiatimni ham go‘zal qil!”. Alloh taolo o‘z payg‘ambariga go‘zal axloq manbai bo‘lgan Qur’oni karimni yuborib, uni tarbiyalagan. Payg‘ambar alayhissalom o‘z axloqlarini Qur’ondan olib, u bilan birga sahobalarini tarbiyalaganlar, so‘ngra odamlarni maqbul va go‘zal axloq bilan bezashga da’vat etganlar. Shuning uchun: “Alloh taolo meni ezgu va yoqimli axloqni komil qilish uchun payg‘ambarlikka tanladi”[25], dedilar.

Zamaxshariyning ta’kidlashicha, islom dinining asosiy manbai Qur’ondir. Alloh taolo o‘z amr va tavsiyalarini Qur’on orqali yetkazgan. Alloh taolo tomonidan insonlarning diniy va dunyoviy hayotini tartibga solish uchun yuborilgan Qur’ondagi hukmlar uchta asosiy mavzuda jamlangan: iymon, ibodat va axloq. Qur’on nafaqat odamlarga qanday qilib to‘g‘ri e’tiqodga ega bo‘lish va Allohga qanday ibodat qilish kerakligini o‘rgatgan, balki kundalik hayotlarida qanday axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini ham o‘rgatadi.

Zamaxshariy insonni ajrga yetaklovchi vosita axloq ekanini quyidagi oyat bilan izohlaydi: “Shubhasizki, inson (zoti)ni eng chiroyli shaklda yaratdik. Keyin (qilmishlari tufayli) uni qabihlarning eng qabih holatiga qaytardik. (Alloh va Rasuliga) ishonib, yaxshi ishlarni amalga oshirganlar bundan mustasno – ularga bitmas-tuganmas mukofot bor”[26]. Shunga ko‘ra, inson tabiatan boshqa mavjudotlardan ustun bo‘lsa-da, yomon odat va xulq-atvorga ega bo‘lsa, nihoyatda qadrsiz holatga tushib qolishi mumkin. Allohga iymon keltirgan va iymoniga ko‘ra yashagan insonlar bunday mavqega tushmaydi. Darhaqiqat, go‘zal axloqli insonlar boshqalar tomonidan ham sevilib, Alloh taolo tomonidan mukofotlanadi.

Zamaxshariy qur’onni to‘g‘ri va noto‘g‘rini ochib beruvchi go‘zal axloq manbai sifatida ko‘rar ekan, rostgo‘ylik, yolg‘on gapirmaslik, odamlarni aldamaslik, ota-onaga qarshi chiqmaslik, odamlarning orqasidan gapirmaslik, katta ketmaslik, odamlarga past nazar bilan qaramaslik kabi ko‘plab axloqiy unsurlarga bevosita ishora qiladi. Qur’onda axloqiy xususiyatlari tufayli saqlanib qolgan yoki yo‘q bo‘lib ketgan avvalgi jamiyatlar hayotidan misollar keltirilishi ham uning ta’sir kuchiga hissa qo‘shgan.

Qur’onning ham asosiy maqsadi insonlarni Yagona Allohga iymon keltirishiga xizmat qilish bo‘lgan. Qur’oni Karimda iymon bilan birga alohida ta’kidlangan yana bir jihat “yaxshi amallar” bo‘lib, buni go‘zal axloq deb tushunishimiz mumkin. Shubhasiz, go‘zal axloq mo‘min kishida bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy fazilatlardandir. Shunga ko‘ra, Zamaxshariy komil mo‘minning quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. U halol, sodiq bo‘lishi kerak, chunki vafo va halollik ham Qur’on, ham Payg‘ambarimiz tavsiya qilgan eng muhim axloqiy go‘zalliklardan biridir. Odamlarni aldamaslik, har bir ishda halol bo‘lish, va’daga vafo qilish, omonatni asrash va shunga o‘xshash fazilatlar go‘zal axloqli musulmonning yaxshi odatlaridandir. U bardoshli bo‘lishi kerak, boshqalarning xatolariga e’tibor bermasligi, o‘ziga qarshi qilingan xatolarni kechirishni bilishi va bag‘rikenglik ko‘rsatishi lozim. Jamiyatda yashovchi odamlar turli xil fikrlar, maqsadlar va turmush tarziga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu farqlarni tushunish va bag‘rikenglik bilan kutib olish ham ijtimoiy tinchlik va birlikni ta’minlaydi.

Zamaxshariy insonlarni saxiy bo‘lishga, ziqna bo‘lmaslikka undaydi. O‘z imkoniyatlarni kambag‘al birodarlariga berish imkoniga ega bo‘lgan mo‘minga saxiy deyiladi. Allohning roziligini qozonish uchun ko‘ngildan yordam berishga saxovat deyiladi. Qur’on axloqiy qadriyatlarining ikkinchi asosiy xususiyati xayriya faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamaxshariyning fikriga ko‘ra, insonlarning eng yaxshisi odamlarga eng foydalisidir. Mana shu obyektiv fikrdan kelib chiqib, “Men hech kimni xafa qilmayman” deyishning o‘zi yetarli emas, “Hammaga xizmat qilaman” deb aytish joizligiga e’tibor qaratadi. Xalq so‘zi arab tilida Allohning bandalari degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda xalqqa, ya’ni Allohning bandalariga xizmat qilish

[25]Abdulhamîd Kâsım en-Neccâr, “ez-Zemahşerî Âsârühû ve Menhecühü’n-Nahvî”, (Basılmamış YüksekLisans Tezi), Fatih Üniversitesi, Trablus; 1982, s. 173.

[26] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. Tin surasi. 4-6-oyatlar; 2019, 597-bet.

hech qanday kamsitishlarga e’tibor bermasdan, barcha odamlarga xizmat qilish sifatida joriy etilishi kerak. Rang, irq, mintaqa, til, din va boshqalarni farqlamaslik joiz. Insoniyat Xudoning in’omi, nasli holatidadir. Alloh nazdida odamlarning eng sevimlisi esa Allohga eng ko‘p xizmat qilganidir[27].

Zamaxshariy e’tibor qaratgan axloqiy qadriyatlardan yana biri erkinlik va niyatdir. Erkinlik va ixtiyorga asoslanmagan xatti-harakatlar Qur’on ma’nosida na axloq, na ibodat bo‘lishi mumkin. Yashirin yoki ochiq bosim ostida ongsiz ravishda ijro etilishi Qur’on marhamat qiladigan narsa emas, balki u yomon ko‘radigan narsadir. Bu tamoyil umumbashariy va o‘lmas go‘zallikda bayon qilingan edi: “Dinga zo‘rlab (kiritish) yo‘qdir. (Zero), Haq Yo‘l zalolatdan ajrab bo‘ldi. Bas, kim shaytondan yuz o‘girib, Allohga iymon keltirsa, u hech ajrab ketmaydigan mustahkam halqani ushlabdi. Alloh eshitguvchi, bilguvchidir.”[28] Qur’on axloqi insonlarga dunyoda go‘zal hayot kechirish va abadiy oxiratga tayyorgarlik ko‘rish uchun Alloh tomonidan berilgan in’omdir. Bu axloqni yashash nihoyatda oson, zavqli va qulaydir.

Zamaxshariy asarlarida ma’lum bir axloqiy masalalarni tizimli yo‘lga qo‘yishning nazariy tamoyillari va qoidalari keltirilmagan bo‘lsa-da, axloq insonning fe’l-atvori, yaxshilik va yomonlikni belgilashi, yaxshilikni qabul qilish va yomonlikdan saqlanish yo‘llari insonlar bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni tashkil etishi haqida so‘z boradi. Axloqning sharofati bilan inson xulq-atvoridagi go‘zallik va xunuklikni anglash bilan birga, yaxshilik va illatlarni ham anglaydi, axloqiy fazilatlar bilan ziynatlanish, yomonlik yoki ruhiy kasalliklardan qutulish yo‘llarini o‘rganadi. Axir, axloqning maqsadi ham shu. “Sizlar odamlar orasida mol-u dunyolaringiz bilan emas, odob-axloqlaringiz bilan ulug‘lanasizlar”. “Xulq” so‘zi Qur’onda ikki joyda zikr qilingan. Zamaxshariyning qayd etishicha, ko‘pgina oyatlarda “amal” atamasining doirasi kengaytirilib, axloqiy xulq-atvorni ham qamrab olgan. Bundan tashqari, taqvo, yaxshi amallar, yo‘nalish, yaxshilik, ma’ruf kabi so‘zlar ham go‘zal axloqlarni bildiradi. Hasan ibn Ali (r.a) rivoyat qiladi, “Rasulullоh (s.a.v.) shunday deganlar: “Albatta kishi yaxshi xulqi bilan kunduzi ro‘za tutib, kechasi namoz o‘qib chiqqan kishining darajasiga erishadi”[29]. Zamaxshariyning Qur’oni Karimdagi nazariy va amaliy axloqqa oid qarashlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Zamaxshariyning axloq iymon va ibodat bilan chambarchas bog‘langanligi haqidagi qarashlari. Qur’oni karimning ko‘p oyatlarida iymondan tashqari ibodat va go‘zal axloqqa ega bo‘lish zarurligiga ishora qilinadi. Zamaxshariyning qayd etishicha, Qur’onda axloqiy burchlar va diniy buyruqlar birga zikr qilingan. Diniy yoki iymon amri bo‘lmagan axloqiy amr mavjud emas. Masalan, namoz, ro‘za, haj va zakot diniy farz bo‘lgani kabi, salomatlikni saqlash, oilani bardavom etish, boshqalarga yordam berish ham diniy farzdir. Odam o‘ldirish, ichkilik ichish, zino qilish harom bo‘lganidek, o‘z sog‘lig‘ini ayamaslik, g‘iybat qilish, odamlarning aybini yuziga solish ham haromdir.

2. Zamaxshariyning axloq va inson mas’uliyatining bog‘liqligi haqidagi qarashlari. Zamaxshariyning fikricha, mas’uliyat insonning qadr-qimmatini ochib beruvchi tushunchadir. Mas’uliyat va mas’uliyatsizlik aqlli mavjudot bo‘lgan odamlar bilan aqlsiz mavjudotlar o‘rtasidagi farqni ochib beradi. Ko‘rinib turibdiki, Qur’on amr va taqiqlari odamlarni markaziy o‘ringa qo‘yadi. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, inson birinchi navbatda Xudo oldida javobgardir. Ana shu mas’uliyatdan kelib chiqib, Allohga va U nozil qilgan haqiqatlarga ishonish, Unga so‘zsiz itoat qilish, uning so‘zi, ishlari va ne’matlari uchun mulohaza yuritish, eslash va shukr qilish, Uni hamma narsadan ustun ko‘rish, Unga har kuni sajda qilish; Unga tavakkal qilish, tavba qilish va Uning rahmatidan noumid bo‘lmasligi kerak. Allohdan keyin inson o‘z payg‘ambari, uning qadriyatlari, o‘zi, oilasi, atrofidagilar va barcha insonlar oldida mas’uldir. Axloqiy mas’uliyatning eng yorqin ifodasi, oxiratda hammaning faqat o‘z gunohlari uchun javob berishidir. Har bir

[27] Muhammed Hüseyin Ebû Musa, el-Belâgatu’l-Kur’âniyye fî Tefsîri’z-Zemahşerî, Dâru’l-Fikri’l-’Arabî, Mısır, ty, s. 34.

[28] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. Baqara surasi. 88-oyat; 2019, 42-bet.

[29] O‘zR FA SHI. Q.№ 2384. 92b sahifa

jonning har bir amali belgilanib, qayd qilinadi va har bir kishi birin-ketin hisob-kitob qilinadi, bunda quloq, ko‘z, yuraking mas’ul bo‘lishi va dunyoda berilgan ne’matlar hisob-kitob qilinishi ta’kidlanib, mas’uliyatga qat’iy urg‘u beriladi. Qur’onda mas’uliyat erkinligiga keng o‘rin beriladi. Zamaxshariyning ta’kidlashicha, insonga go‘zal axloqqa rioya qilish bo‘yicha maslahat va nasihatlar berilgan bo‘lsa-da, insonning bu boradagi erki o‘z qo‘lidadir. Erkinlikda inson yo ruhini poklaydi va haqiqiy baxtga yerishadi yoki ruhini yomonlik bilan qoralaydi va ziyon ko‘radi. Shuning uchun ham shayton mas’uliyat-erkinlik munosabatlarini me’yorda o‘rnatolmaganlarga qarata: “Unday bo‘lsa, meni ayblama, o‘zingni qoralama!” deydi. Axloqiy mas’uliyat davom yetar ekan, axloq ham davom etadi.

3. Zamaxshariyning zarurat va mutlaqlikni o‘zida mujassam etgan burch axloqi haqidagi qarashlari. Zamaxshariy burch va vazifani zarur va majburiy hodiasalar deb biladi. Ya’ni farz umumiy, umumbashariy va o‘zgarmas qoidadir. U Allohning amr va ta’qiqlari hamma joyda hamma odamlar uchun bir xil ekanligini, Alloh taolo hech kimga o‘z kuchi yetadiganidan ortiq narsani yuklamaganligini, hamda burchning mutlaq ekanini qayd etadi. Ya’ni, farz manfaat yoki zavq keltirgani uchun emas, balki farz bo‘lgani uchun bajariladi.

4. Zamaxshariyning farz (majburiyat) axloqi haqidagi qarashlari. Qur’onda bu holat amr, burch, epitafiya va farz atamalari bilan birga qo‘llanadi. Zamaxshariyning fikricha, amaliy axloqda majburiyat bo‘lmasa, mas’uliyat ham yo‘qoladi, mas’uliyat yo‘qolsa, adolat amalga oshmaydi, keyin tartib buziladi. Farz axloqini izohlar ekan, mutafakkir axloqiy harakatning dushmani sifatida o‘ylamay, ko‘r-ko‘rona ixlossiz nafsga itoat qilishni tilga oladi.

5. Zamaxshariyning axloqiy majburiyatlar ba’zi jazo choralari bilan mustahkamlanganligi haqidagi qarashlari. Zamaxshariy ba’zi insonlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy, huquqiy va ilohiy jazolarni tilga oladi. Insonning o‘ziga qo‘yadigan axloqiy jazolarini tavba qilish, xatosini tuzatish, gunoh bo‘lishi mumkin bo‘lgan yo‘llardan qochish ekanligini qayd etadi.

Qur’oni karimda odamlarning hayoti, mulki va sha’nini himoya qilish, inson qadr-qimmatiga mos ijtimoiy tuzum o‘rnatish axloqiy farz deb bilinadi.

Ma’lumki, axloqning hamma tomonidan birdek qabul qilingan yagona ta’rifi yo‘q. Biroq, axloqni “xulq-atvor kodeksi”, umuman olganda “jamiyat a’zolari uchun yo‘l-yo‘riq” deyish mumkin. Ushbu xulq-atvor qoidalarining asoslari muhimdir. Ayrim faylasuflar axloqning asosini inson tabiati, aql va diniy qarashlar tashkil qiladi, degan fikrdalar. Hozirgi jamiyatlarda mana shu uch ustunga asoslangan axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rish mumkin. Axloqning jamiyat bilan kuchli aloqasi mavjudligi shubhasiz haqiqatdir. Har bir jamiyatning urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari va tafakkuri har xil bo‘lgani uchun har xil axloqiy tamoyillar vujudga kelgan. Bir jamiyat tomonidan axloqiy xususiyatga ega deb hisoblangan narsa boshqa jamiyat tomonidan axloqsiz xususiyat kasb etishi mumkin. Binobarin, axloqiy me’yorlar jamiyat uchun emas, balki barcha insonlarning ikki dunyoda baxtli bo‘lishlari uchun belgilanishi kerak.

Zamaxshariyning qayd etishicha, Qur’onda axloqning asosini iymon va muhabbat deb belgilaydi. Ana shu asoslarga asoslangan axloqiy tamoyillar esa shaxs va jamiyatning evolyutsion xususiyatlarini namoyon qiladi. Unda insonlar o‘zlari kabi boshqalarni ham qadrlashlari, ularning huquqlarini inobatga olishlari nazarda tutilgan. Kishining nafsini, oilasini, jamiyati va u yashayotgan dunyoni hisobga oladigan Qur’oni karimda tinch, osoyishta, mehribon shaxs, oila, jamiyat va dunyo yaratish ko‘zda tutilgan. Zamaxshariy islom dinining mazmun-mohiyatida iymon va muhabbat ko‘rsatkichlari bo‘lgan yordam, fidoyilik, mehr-shafqat, o‘zgaga va o‘ziga zarar yetkazmaslik, insoniyat manfaati uchun mehnat qilish kabi umuminsoniy tamoyillar mavjudligini yaxshi bilgan.

Zamaxshariy ijodida, bugungi kunga ham aloqador bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalari sifatida quyidagi tamoyillar qabul qilinadi:

Hurmat: Bu odamlarning o‘zini va boshqalarni hurmat qilishi, ya’ni boshqalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan xatti-harakatlardan qochishdir.

Ishonchlilik: Bu har tomonlama ishonchli shaxs bo‘lish va boshqalarga ishonishni tasvirlaydi.

Mas’uliyat: Bu shaxsning oila, atrof-muhit, do‘stlar, ish joyi, din oldidagi majburiyatlarini bajarishi va umuman jamiyat uchun foydali narsalarni qilishini ifodalaydi.

Adolatli bo‘lish: Bu boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lishni va hammaga teng sharoitlarda teng munosabatda bo‘lishni anglatadi.

Rahmdil bo‘lish: boshqalarga nisbatan sezgirlik va mehribonlikni ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu besh tamoyilda jamlangan umuminsoniy axloq qoidalarining kengayishini, qanday yashashimiz va bir-birimizga qanday munosabatda bo‘lishni bilishimiz zarur. Yolg‘on gapirmaslik, boshqalarga o‘zingiz xohlagandek munosabatda bo‘lish, o‘g‘irlik qilmaslik, aldamaslik, boshqalarni nohaq ayblamaslik, zino qilmaslik, zo‘rlamaslik, odam o‘ldirmaslik, atrof-muhitni buzmaslik shular jumlasidandir. Boshqa tomondan, adolatli bo‘lish, halol bo‘lish, mehribon bo‘lish, oila va do‘stlarga sodiq bo‘lish, kichiklarga rahm-shafqatli, kattalarga hurmatda bo‘lish, zaif va ojizlarga yordam berish, butun hayotni hurmat qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabilar rioya qilinishi kerak bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalari sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamîd Kâsım en-Neccâr, “ez-Zemahşerî Âsârühû ve Menhecühü’n-Nahvî”, (Basılmamış YüksekLisans Tezi), Fatih Üniversitesi, Trablus; 1982, s. 173.

2. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. Tin surasi. 4-6-oyatlar; 2019, 597-bet.

3. Muhammed Hüseyin Ebû Musa, el-Belâgatu’l-Kur’âniyye fî Tefsîri’z-Zemahşerî, Dâru’l-Fikri’l-’Arabî, Mısır, ty, s. 34.

4. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. Baqara surasi. 88-oyat; 2019, 42-bet.

5. O‘zR FA SHI. Q.№ 2384. 92b sahifa